

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

TEXNIKA VA KASBIY TA'LIM FAKULTETI

Iqtisodiyot ta'lim yo'nalishi

3-kurs 303-guruh talabasi

Salomova Muyassarning

PEDAGOGIK MAHORAT

fanidan tayyorlagan

KURS ISHI

**Mavzu: O'qituvchining kasbiga oid mahoratini
shakllantirishda psixologik-pedagogik
nazariyalarning ahamiyati**

Qabul qildi:

Ergasheva O.

TERMIZ-2015

O'qituvchining kasbiga oid mahoratini shakllantirishda psixologik-pedagogik nazariyalarning ahamiyati

Reja

Kirish

- 1. Faylasuflar asarlarida o'qituvchilarning kasbiy mahorati haqidagi pedagogik-psixologik nazariyalar**
- 2. Pedagogik-psixologik tashxislash asosida o'qituvchining kasbiy rivojlanishini ta'minlash usullari**
- 3. O'qituvchi faoliyatini pedagogik-psixologik tashxislash**

Xulosa

Mavzuning dolzarbligi. Pedagogik mahoratni biz o'qituvchida bo'lishi lozim bo'lgan bir qancha shahsiy sifatlar majmuasi sifatida tushunamiz. Bu shahsiy sifatlar kasbiy faoliyatni yuqori saviyada tashkil etishga imkon beradi. SHunday muhim sifatlarga – o'qituvchi faoliyatining insonparvarligi; uning kasbiy bilimi; pedagogik qobiliyatlari va pedagogik texnikasini kiritish mumkin.

SHu o'rinda quyidagi holatlarni ta'kidlash joiz: birinchidan, pedagogik mahorat shahs ruhiyatidagi o'z-o'zini tashkil etuvchi tizim bo'lib, insonparvar yo'nalganlik bu tizimning asosiy omili bo'lib xizmat qiladi; ikkinchidan kasbiy mahoratni rivojlantirish zaminida (asosida) o'qituvchi hatti-harakatlarining asl mohiyati asoslanganligi, ongliligini belgilaydigan kasbiy bilim yotadi. Yo'nalganlik va kasbiy bilim professional yuqori darajadagi faoliyatning "skelet"i sanalanadi, u o'z-o'zini tashkil etuvchi tizimning yahlitligini ta'minlaydi; uchinchidan, pedagogik qobiliyatlar mahoratning shakllanishini tezlashtiradigan hamirturush bo'lib hisoblanadi; to'rtinchidan, bilim va qobiliyatga tayanadigan pedagogik texnika, u barcha ta'sir vositalarini maqsad bilan bog'lashga xizmat qiladi, shuningdek, pedagogik faoliyat strukturasini muvofiqlashtiradi. SHunday qilib, pedagogik mahorat tizimining to'rt tarkibiy qismi ham o'zaro bog'liq. Ularning o'sishida faqat tashqi ta'sirning o'zigina kifoya emas, ular o'z-o'zini rivojlantirishni ham talab etadi. O'z-o'zini rivojlantirish mahsus bilim va ko'nikmalarga asoslanadi. Muvaffaqiyatning asosiy sharti – bu qobiliyatlar, vositasi esa pedagogik texnikadir.

Kurs ishining maqsadi: Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilimlari va o'qitish metodlaridan foydalanishda, pedagogik-psixologik nazariyalarning ahamiyati shuningdek o'qituvchilarning ta'lim berish va tarbiyalash mahoratlarini shakllantirish yo'llarini aniqlash.

Malakali mutaxassislar, shu jumladan, pedagoglarni tayyorlash tizimini takomillashtirish jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan taraqqiy etishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki, o'qituvchi, eng avvalo, barkamol avlodni voyaga yetkazishdek muhim ijtimoiy buyurtmani bajaruvchi asosiy ijrochi hisoblanadi. Prezidentimiz Islom Karimov «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» nomli asarida «Yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur

sohiblarini tarbiyalashdek ma'suliyatli vazifani ado etishda birinchi galda o'qituvchi – murabbiylarning mehnatiga suyanamiz va tayanamiz» deya ta'kidlaydi. Bu ishonch pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi va pedagogik mahoratini shakllantirishga innovasion asosda yondoshish zaruratini shakllantiradi.

Ma'lumki, pedagogik faoliyat – ta'lim maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan holda maxsus tashkil etiluvchi va o'qituvchi hamda ta'lim oluvchilarning o'zaro munosabatlariga asoslanuvchi ijtimoiy faoliyat turidir. Pedagogik faoliyat samaradorligining shartlaridan biri “kasbiy tayyorgarlik” tushunchasini quyidagicha ta'riflash mumkin bo'ladi:

Kasbiy tayyorgarlik - maxsus nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, metodik bilimlar, shuningdek, ma'naviy-axloqiy sifatlarni o'zlashtirish asosida shaxsning kasbiy faoliyatni olib borishga nisbatan fiziologik, psixologik va jismoniy tayyorgarlik darajasi.

Kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish - DTS talablari asosida shaxsda maxsus nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, shuningdek, ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish, bo'lajak mutaxassisni kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli olib borishga nisbatan fiziologik, psixologik va jismoniy tayyorlash jarayonidir.

1. Faylasuflar va olimlar asarlarida o‘qituvchilarning kasbiy mahorati haqidagi pedagogik-psixologik nazariyalar

Antik davrdagi maktablar Sparta, Afina va Rim tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida faoliyat olib borganlar. Qadimgi Yunonistonda bunday joylar akademiva deb nomlangan. «Akademiya» so‘zi afsonaviy qahramon Akadema nomidan kelib chiqqan. Eramizdan avvalgi V asrda Afina yaqinidagi Akadema so‘zi bilan nomlanuvchi joyda Platon o‘z shogirdlariga ma’ruzalar o‘qigan bo‘lib, keyinchalik ta’lim- tarbiya berish uchun tashkil etiluvchi maskanlar ham shunday nom bilan atala boshlangan. Qadimgi Yunonistonda bolalarga ta’lim- tarbiya berish faylasuflar zimmasiga yuklatilgan edi.

Ular notiqlik san’atining yetuk namoyondalari bo‘lib, o‘zlarining chiroyli so‘zlari, baland va ta’sirchan ovozlari bilan ta’lim oluvchilarning tafakkuriga, ongiga kirib borganlar, ta’lim va tarbiyada ulkan yutuqlarga erishganlar. Shu sababli, notiqlik san’ati va nutq madaniyatining nazariyasiga, uning cheksiz tarbiyaviy ahamiyatiga ilk marotaba qadimgi Yunonistonda asos solinganligi ilmiy adabiyotlarda bayon etiladi. Yunonistonda epos, lirika, drama, haykaltaroshlik, musiqa va me’mor- chilik san’ati bilan birga notiqlik san’ati ham murakkab va muhim san’at asari sifatida tan olingan. Notiqlik san’atini davlatning muhim ijtimoiy-siyosiy ishlariga taalluqli faoliyatdagi ahamiyati uchun hamda yosh avlodni tarbiyalashda ular ongi va tafakkuriga qizg‘in ta’sir etuvchi murakkab vosita sifatida rivojlantirganlar.

Eramizdan avvalgi V asr Yunonistonda yoshlarga ta’lim-tarbiya berish va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning eng takomillashgan davri bo‘lgan. Shu sababli “Notiqlik san’ati” ham qizg‘in rivojlangan davr hisoblanadi. Bu davrda notiqlikning uchta qonuniyati umumiy shior sifatida e’tirof etilgan:

- o‘quvchilarga tushuntirish (ma’lum bir mavzuni);
- o‘quvchilar ongini uyg‘otish (inson tafakkurini, ongini, maqsadini);
- har bir tinglovchiga huzur-halovat va qoniqish uyg‘otish.

Yunonistonda notiq ushbu qonuniyatlarga amal qilgan holda o‘quv-

chilarga, ya'ni "tinglovchilarga halovat bag'ishlash" orqali ulami ezgu-likka, adolatparvarlikka, vatan oldidagi burchga sadoqatli bo'lishga, yaxshi amallarni bajarishga, axloq va odob qoidalariga rioya qilishga chorlar edi. Bu uning jamiyat oldidagi asosiy vazifasi hisoblanardi. Notiqlik san'atini chuqur egallagan, o'zlarining go'zal va chiroyli nutqlari bilan jamiyatda hurmat va e'tibor qozongan Dinarx, Giperid, Gorgiy, Sokrat, Isey, Esxil, Demosfen kabi namoyondalar mashhur davlat arboblari bo'lib etishganlar.

Yunon faylasuflari o'qituvchilarning ta'lim va tarbiya berishda og'zaki nutqning shakl va qonuniyatlarini, mulohaza va isbot kabi mantiq ilmi qoidalarini chuqur o'zlashtirishlari lozimligini qat'iy talab qilganlar, Shuning uchun pedagog o'qituvchilar o'z fikrlari va tuyg'ularini o'quvchilar hamda tinglovchilar tafakkuri va ongiga chuqur singdira olganlar va keskin ta'sir o'tkazganlar. Har bir pedagog o'zlarining notiqlik san'ati ustida tinimsiz mashg'ulotlar olib borganlar, sehrli ovoz sohibi bo'lish uchun nutq texnikasining barcha qonuniyatlariga amal qilganlar. Ular o'z nutqlarini mafkuraviy va siyosiy kurash hamda yosh avlodni tarbiyalash quroli deb hisoblaganlar.

Mashhur faylasuf olim Sokrat (eramizdan avvalgi 469—399) o'quvchilar bilan savol-javob usuli orqali ta'lim-tarbiya berishning suhbat metodiga asos solgan. Sokratning shogirdi Platon o'z ustoziga o'yalarini davom ettirib, o'quvchilar bilan savol-javob usulini notiqlik san'atining bir shakli sifatidagi ahamiyati cheksiz ekanligini bayon etadi hamda uni inson tafakkuri va ongini, dunyoqarashini og'zaki nutq bilan boyituvchi noyob uslub sifatida baholaydi.

Yunonistonda yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda notiqlik san'atining ahamiyatini yoritib berish hamda uning rivojlanishi faylasuf olim Demosfen (eramizdan avvalgi 384—322) nomi bilan uzviy bog'langan. U yoshlik yillaridanoq notiqlik san'atiga qiziqdi. Tug'ma duduq bo'lishiga qaramasdan, o'quvchi va tinglovchilarning istehzolariga bardosh berib, qizg'in va shiddatli mehnati bilan notiqlik mahoratini namoyish eta olgan. Barcha dunyoviy bilimlarni faqat notiqlik san'atining olijanob qudrati asosida tinglovchilar tafakkuriga etkazish mumkin deb ta'kidlagan edi faylasuf. Faqat Demosfen Yunonistonda

notiqlik san'atining yetuk namoyondasi, ya'ni elitasi sifatida mashhur bo'ldi. U davlat tribu- nasini siyosiy va mafkuraviy kurash maydoniga aylantirdi.

Olimlar o'qituvchilarning kasbiy mahoratini takomillashtirish to'g'risida.

o'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini takomillashtirish to'g'ri- sidagi muammolar evropa olimlari Ya. A. Komenskiy, Djon Lokk, G. Pestalotssi, A. Disterverg, K.D. Ushinskiy kabilarning asarlarida o'z ifodasini topgan. Jumladan, chex olimi, mashhur pedagog Ya. A. Komenskiy o'qituvchining eng muhim xususiyatlari qatoriga bolalarni sevishi, yuksak axloqi, bilimdonligi, iqtidori, qobiliyati kabilarni kiritadi va ularning mohiyatini mukammal tavsiflab beradi.

Yan Amos Komenskiy o'z davrida o'qituvchilarning bola dunyoqarashini rivojlantirishdagi roliga yuqori baho berib, o'qituvchilik «yer yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb» ekanligini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, o'qituvchi o'z burchlarini chuqur anglay olishi hamda o'z qadr-qimmatini to'la baholay bilishi zarur. Ya.A. Komenskiy o'qituvchi obrazini tasvirlar ekan, uning shax- sida quyidagi fazilatlar namoyon bo'lishi maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi: vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o'z ishini sevuvchi, o'quvchilarga mehr bilan muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg'otuvchi, o'quvchilarni o'z ortidan ergashtiruvchi va diniy r' tiqodni shakl- lcmtiruvchi.

I.G. Pestalotssi o'qituvchining kasbiy sifatlariga baho berish bilan birga, asosan uning xalq ta'limi tarmog'ini takomillashtirishdagi roli hamda fan asoslarini egallashdagi ahamiyati va vazifalariga to'xtalib o'tadi.

A. Disterverg o'qituvchining ta'limdagi roliga yuqori baho berib, u o'z faoliyatini chuqur bilib, pedagogik mahoratini oshirib borishi o'quvchilarni qalbdan yoqtirishi natijasida yuzaga keladi deb uqtiradi. o'qituvchi bolalarning individual xususiyatlarini, qobiliyatini, fc.nl i- yatini mukammal bilishi uchun muayyan darajada psixologik bilim- larga ham ega bo'lishi kerakligini takidlab o'tgan.

Pedagog olim Djon Lokk o'qituvchi psixologiyasining eng muhim jihatlarini ishlab chiqqan. Ular orasiga mo''tadillik, g'ayrat- shijoatlilik, ehtiyotkorlik kabi

hislatlarni kiritib, o'qituvchining pedagogik faoliyatidagi rolini asarlarida yoritib bergan.

A.I.Gersen, L.N.Tolctoy, I.G.Chernishevskiy, K. D.Ushinskiy kabi rus pedagog olimlari g'arb mutafakkirlari g'oyalarining vorislari sifatida mazkur muammolarga o'z mulohazalarini bildirganlar. Jumladan, A.I.Gersen mulohazalariga ko'ra, o'qituvchining asosiy hislati - bu uning bolalar bilan munosabatda bo'layotganligini sezishda, bolalar ruhiy dunyosini tushuna olishida, axloqiy qobiliyatining mavjudligida, chunki u shunday iste'dodga ega bo'lmog'i zarurki, unga har qaysi o'qituvchi erisha olmaydi.

Taniqli rus pedagogi K.D.Ushinskiy ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining roli va shaxsiga yuqori baho berib, o'qituvchi kasbiga oid ilmiy mulohazalarida hech bir Qonun yoki Programma, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi metod yoki tamoyillar o'qituvchi shaxsi- ning pedagogik faoliyatdagi mahorati o'rnini bosa olmaydi deb hisoblaydi.

K.D.Ushinskiy o'qituvchi ma'naviyati va kasbiy faoliyatiga yuqori baho beradi hamda ularning kasbiy malakalarini doimiy ravishda tako- millashtirib borish maqsadga muvofiq ekanligi to'g'risidagi g'oyani ilgari suradi. Mazkur g'oyaning ijtimoiy ahamiyatini tasdiqlovchi tizim - o'qituvchilarni qayta tayyorlovchi kurslar tizimini tashkil etishni u ilk bor asoslab bergan.

K.D.Ushinskiy o'qituvchining mashaqqatli mehnatini ta'riflab shunday deydi: "Hali etilmagan va fikri xayoli tarqoq bo'lgan o'ttiz yoki qirqta o'quvchining ongini butun dars davomida mashg'ul qilib turish uchun o'qituvchi o'z so'zlari va bergan masalalari to'g'risida ko'p bosh qotirishi, serdiquat bo'lishi kerak. Mana shu sababdan bilimi bo'lgan har bir kishi o'qituvchi bo'lishga layoqatli bo'lavermaydi. Jamiyat tomonidan hamma vaqt ham etarlicha ta'rif qilinmaydigan bu vazifani insof bilan ado qilmoq uchun zo'r matonat va mahorat talab qilinadi".

K.D.Ushinskiyning ta'kidlashicha, o'qituvchi qalbining bolalarga nisbatan mehrini bildiruvchi axloqiy hislatlaridan bin, muallimning tarbiyaviy kuchini va qobiliyatini ko'rsatadigan ma'naviy oyinasi ijtimoiy qimmatga ega bo'lib, barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga etkazishda namoyon bo'ladi. Pedagogik faoliyatning yana bir muhim tarkibiy qismi o'qituvchining xapakteri va his-

tuyg'ularida, uning o'quvchilar bilan muloqotga kirishish usulida namoyon bo'luvchi pedagogik-psixologik takt (odob, axloq) xususiyatlarini qo'llashdir. Uning fikricha psixologik takt (odob, axloq) hayotimizning barcha jabhalarida g'oyatda keng qo'llaniladigan faoliyat turi, shuning uchun ushbu taktlarga ega bo'lmasdan, odamlar orasida hech qanday muloqot va nutq qobiliyatining o'zi ham bo'lishi mumkin emas, deb ta'kidlaydi.

«Aqlli, fikran boy, bag'ri keng insonchalik hech narsa yoshlarni qiziqitirmaydi, o'zining ortidan ergashtira olmaydi ham..., aql — aql bilan tarbiyalanadi, vijdon — vijdon bilan, vatanga sadoqatlik — bevosita vatan uchun xizmat qilish bilan..., — deb ta'kidlagan edi mashhur rus pedagogi V.A.Suxomlinskiy. - O'qituvchi o'zining butun borlig 4, kundalik hayoti, ta'naviy madaniyati bilan hamkasblari va o'quvchilarga o'rnak bo'ladi va ularni o'z ortidan ergashtiradi».

o'qituvchida pedagogik mahoratni shakllantirishning ilmiy - nazariy asoslari pedagog olim V.A. Slavyanin tomonidan ham tadqiq qilingan. U kasbiy-pedagogik tayyorgarlik, o'qituvchining shaxsi va kasbiy shakllanish yo'nalishi va bunda pedagogik mahorat to'g'risida so'z yuritib, shunday yozadi: “o'qituvchi muntazam ravishda pedagogik nazariyalarga tayansagina, o'qituvchilik mahoratini egallaydi. Chunki, pedagogik amaliyot doimiy ravishda pedagogik nazariyaga murojaat qilishni taqozo etadi. Birinchidan, ilmiy nazariyalar — taraqqiyotning umumiy qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalarini aks ettiruvchi ilmiy bilimlardir, amaliyot bo'lsa, doimo aniq vaziyatga asoslanadi. Ikkinchidan, pedagogik faoliyat -falsafa, pedagogika, psixologiyaga oid bilimlar sinteziga asoslanuvchi yaxlit jarayondir. Bu bilimlar sintezsiz pedagogik amaliyotni maqsadli qurish juda mushkul”¹. Demak. o'qituvchidan nafaqat pedagogik mahoratni mukammal egallash talab etiladi, balki, pedagogik amaliyotni to'g'ri va maqsadli tashkil qilish uchun chuqur ilmiy - nazariy ma'lumotlarga ham ega bo'lish lozim.

Buyuk rus adibi L.N.Tolstoy o'qituvchi fazilatining mukammalligini o'z mutaxassisligiga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishi bilan bir vaqtda bolalarga bo'lgan munosabatida, ularni xuddi o'z farzandlaridek jon-dilidan sevishida ekaniigida ko'rgan. Uning ta'kidlashicha, “agar o'qituvchi faqat ishiga havas

¹ Педагогика; Учеб, пособие для студентов пед. институтов / Под ред. Ю.К. Бабанском о М: Просвещение, 1983, С. 600.

qo'ygan bo'lsa, u yaxshi o'qituvchi bo'ladi. Agar o'qituvchi bolaga faqat otasi kabi havas qo'ygan bo'lsa, u oldingi o'qituvchidan yaxshiroq bo'ladi. Bordini, ikkala hislatni ham o'zida mujassamlashtirsa. u holda u mukammal va mahoratli o'qituvchi bo'la oladi”.

Ma'lumki, pedagogik mahorat tizimida o'qituvchining pedagogik nazokati (odobi) muhim mavqega ega. o'qituvchi nazokatsiz, kasb odobisiz yuksak cho'qqilar sari odimlay olmaydi. Masalaga shu nuqtai nazardan yondashilganda, muallifning so'zlari, o'qituvchi pedagog'k mahoratiga qo'yilgan talablarga mos va hamohangdir.

Hozirgi kunda ham yevropaning yetakchi olimlari (B.P.Zyazin. V.A.Kan-Kalik, Y.N.Kyuluytkin, N.D.Nikandrov, L.I.Ruvinskiy va boshqalar) o'qituvchining pedagogik mahoratini yanada takomillashtirish uchun ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. Xususan, ular o'z asarlarida “mukammal egallangan pedagogik mahorat”ni o'qituvchi doimo orzu qilib intiladigan, ammo yetisha olmaydigan yuksak ideal kasbiy mahorat sifatida izohlaydilar. Shu ma'noda “mahorat” terminini o'qituvchiga nisbatan komplement, ya'ni maqto'v tariqasida eng o'ily baho sifatida qo'llash mumkin. Pedagogik mahorat faqat o'qituvchi batamom o'zlashtirishi lozim bo'igan kasbiy bilim va ko'nikmalarni egallashning eng yuqori cho'qqisi sifatida qabul qilinmasligi kerak. Tajribali o'qituvchi o'z ijobiy yutuqlari bilan qanoatlanib qolmasdan, hamisha kasbiga oid yangiliklarni o'zlashtirib borishi, jamiyat taraqqiyoti tufayli paydo bo'ladigan zamonaviy pedagogik vazifalar va muammolarni hal qilishda faol ishtirok yetishi; o'zining kasbiy ko'nikma va malakalarini uzluksiz oshirib borishga intilishi lozim. Bu pedagogik mahoratni egallashning ajralmas qismidir.

Pedagogik mahoratni egallash va rivojlantirishda (malaka oshirish, takomillashtirishda) o'qituvchi o'zi bilgan va o'rgangan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirib boradi. Demak o'qituvchi kasbiy mahoratini oshirishga intiladi. Uning chegarasi bormi? Bizga ma'lumki, bo'lajak o'qituvchining pedagogik mahorati aslida pedagogika o'liy ta'lim muassasalarida rasmiy ravishda egallanadi va bunga tajribali ustozlar, olimlar jalb etiladi. So'ngra o'quv - tarbiyaviy faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi hujjat bilan ta'minlanadi.

Shu bilan birga, ba'zan yosh o'qituvchining tajribasi va malakasi yetarli emasligi ham tan olinadi. Demak, o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini yanada oshirish uchun, avvalo uning malakasini oshirishga sabab bo'ladigan, pedagogik mahoratini shakllantiradigan zamonaviy manbalarni, omillarni, vosita va metodlarni izlab topish zarur. Ushbu yondashuv o'qituvchi pedagogik mahoratini rivojlantirish muammolarini hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'kidlash joizki, har bir o'qituvchi ko'nikma va malakalarini oshirish bilan birga, o'z kasbiga sadoqatli bo'lishi, uni sevishi hamda uzluksiz takomillashtirib borishi shart. Bunda belgilangan maqsad sari intilish, albatta pedagogik mahoratning eng yuksak cho'qqilarini egalashga ishonch — o'qituvchi uchun muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi zamon ilmiy pedagogik tadqiqotlar tahliliga ko'ra, o'qituvchining kasbiy mahoratini oshirish muammolarini hal etish quyidagicha talqin etiladi:

- o'quv - tarbiyaviy jarayonni eng qulay uslublarini topish va joriy etish;
- o'z mehnatini muntazam ilmiy asosda tashkil yeta olish;
- o'qituvchi pedagogik qobiliyatini va pedagogik madaniyatini oshirish;
- pedagogic muammolarni mohirona hal etish yo'llarini takomillashtirish;
- amaliy va nazariy bilimlarni doimiy oshirib borish;
- kasbiy ijodkorlikni uzluksiz rivojlantirish.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, Sharq va G'arb olimlari tomonidan tahlil qilingan o'qituvchining pedagogik faoliyati haqidagi ko'pgina mulohazalar hozirgi kungacha o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda, demak millati va kelib chiqishidan qat'iy nazar ajdodlar merosini takomillashtirish evaziga hozirgi kunda ta'lim va tarbiyani yanada yuksak bosqichlarga ko'tarish mumkin.

2. Pedagogik-psixologik tashxislash asosida o'qituvchining kasbiy

rivojlanishini ta'minlash usullari

O'qituvchi pedagogik mahoratini oshirish sohasida olib borilayotgan tadqiqotlarda ko'plab olimlar pedagogik mahoratni rivojlantirish haqida fikr bildirishib, bu jarayonning asosiy zahirasi o'qituvchining o'z faoliyati tahliliga doimiy intilishida (V.I.Zagvyazinskiy, Yu.K.Konarjevskiy, Yu.P.Lvova, I.P. Rachenko, L.I.Ruvinskiy, V.P.Simonov, V.A.Suxomlinskiy, Ya.S.Turbovskiy, T.I.Shamova va boshqalar); uning refleksiv qobiliyatlarini takomillashtirish (A.A.Bizyayeva, V.V.Vetrova, N.V.Kuzmina, E.N.Pexota, I.A.Stetsenko va boshqalar); refleksiv pozit- siyasini (A.V.Xristeva) rivojlantirishning o'ziga xos pedagogik reflek- siyasiga bog'liq bolganligi uchun uni pedagogik fikrlashni shakllantirish bilan boglab, shu tariqa (Yu.N.Kulyutkin, G.S.Suxobskaya) o'qituvchi pedagogik refleksiyasini rivojlantirish mumkin (B.Z.Vulfov, G.M.Kodjaspirova, N.V.Kuzmina, Yu.N.Kulyutkin, I.N.mesyonov, S.Yu.Stepanov, G.S.Suxobskaya, N.V.Xarkin, A.V.Xristeva va boshqalar.) deb ta'kidlaydilar.

Ko'pchilik olimlar refleksiyani o'qituvchi tomonidan o'zining faoliyati va uning natijalarini tahlil qilish va o'zini baholash jarayonida rivojlanishini aytadi va «refleksiyani boshqarish imkoniyati va zaruriyati shundan iboratki, o'qituvchi uzluksiz ta'limning qaysi sohasida faoliyat ko'rsatmasin, o'zining ongli ravishda ichki ta'sirini (o'z-o'zini o'ylashga va fikrlashga majbur qilish) va tashqi ta'sirini, shaxsiy o'quv jarayonida boshqarib qo'llay oladi» deb ta'kidlaydilar.

Ilmiy adabiyotlar tahlili va kasbiy refleksiyani o'qituvchi pedagogik faoliyatining tarkibiy qismi va uning pedagogik mahoratini rivojlantirish asoslari sifatida qarash (15.2. - bo'lim), shuningdek qayd qiluvchi eks- periment natijalari kasbiy refleksiyani rivojlantirish usullarini izlash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Shu sababli kasbiy pedagogik faoliyatning turli sohalari bilan shug'ullangan olimlar tashhis (diagnostika) va tashhishlash (diagnozlash) mazmuniga yanada batafsil to'xtalganlar.

Tashhislashga, ya'ni diagnostikaga bilishning alohida usuli sifatida qarash qabul qilingan (grekchadan tarjima qilganda, diagnosis - tanib olish demakdir²). Biz pedagogik tashxislash so'zining o'rniga pedagogik diagnostika so'zini ishlatishni lozim topdik.

Pedagogik diagnostika mazmun va mohiyatiga qarab ko'plab funksiyalarni bajaradi.

PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA. FUNKTSIYALARI

1. Pedagogik diagnostikaning tahliliy vazifalari.
2. Pedagogik diagnostik funksiyalar
3. Pedagogik diagnostikaning baholash vazifasi.
4. Pedagogik diagnostikaning korreksion vazifasi.
4. Pedagogik diagnostikaning orientatsion vazifasi.

2-chizma.

Uning tahliliy vazifasi o'quv-tarbiyaviy jarayondagi yutuq va kamchiliklarning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini, ularning o'zaro bog'lanishlarini aniqlash va chora tadbirlar ishlab chiqishga qaratilgan.

Aslida diagnostik funktsiya o'quvchining ta'lim olganligi, tarbiyalanganligi va rivojlanganligini aniqlash uchun qo'llaniladi, biroq, o'qituvchining ham kasbiy komponentlik darajasini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik diagnostikaning baholash vazifasi ma'muriyat tomonidan olib borilib, alohida o'qituvchi yoki alohida o'quvchi faoliyatida erishgan yutuqlar va kamchiliklar yuzasidan sifat ko'rsatkichlarni miqdor jihatdan baholaydi.

Diagnostikaning korreksion vazifasi o'quv - tarbiyaviy jarayonni o'qituvchining pedagogik faoliyati yuzasidan korreksiyalashni (to'g'ri yo'naltirish) ta'minlaydi va o'qituvchining kasbiy jihatdan o'z - o'zini rivojlantirish va pedagogik mahoratini oshirish uchun sidqidildan kirishga faolligini ta'minlaydi.

Diagnostikaning yo'nalishni oriyentatsion (aniqlash) vazifasining maqsadi pedagogik jamoa va alohida o'qituvchilar faoliyatida mavjud bo'lgan muammolarni uzluksiz hal etishni muvofiqlashtirib borishdir. Pedagogik diagnostikaning

² Kratkiy psixologicheskiy slovar. /Red. - sost. L. A.Karpenko; Pod obshch. red. A.V.Petrovskogo, M.G.Yaroshevskogo. -Rostov- na—Don 1998.-286 b

oriyentatsion vazifasi natijalari haqida doimiy xabarlamini informatsion (axborot) vazifa ta'minlaydi.

Shu o'rinda diagnostika (tashhis) va diagnostikalash (tashhislash) tushunchalarining farqi va qanday ma'no berishini bilish lozim. Diagnostikani soddalashtirilgan ko'rinishda «tashhisni aniqlash»³ deb qarash, unda diagnostikalash (tashhislash) bu jarayonning tashhisni qo'yish metodlari yig'indisidir. Shu bois pedagogik faoliyatning o'ziga xos jihatlarini e'tiborga olib, uni o'rganishda diagnostikalash (tashhislash) terminini qo'llash o'rinliroq ko'rinadi. Umuman diagnostikalash terminini tashxislash deb atalsa ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

Pedagogik tashhislash deganda pedagogik tizimni (shuningdek uning alohida tarkibiy qismlarini) tadqiq qilish metodlarining jamlanmasini tushunamiz, ulardan foydalanish samaradorligi ma'lum tashkiliy - pedagogik shart - sharoitlar bilan bog'liq holda shakllanadi.

Pedagogik tashhislashning yaxlitligi⁵ uning nafaqat o'qituvchi pedagogik faoliyatini o'rganishning diagnostik jihatlarini, balki aniqlangan sabab va oqibatlarining bir—biri bilan o'zaro bog'lanishi asosida har bir o'qituvchining pedagogik qiyinchiliklarni bartaraf etishning optimal yo'llari va vositalarini topish imkoniyatini beradigan konstruktiv - progressiv nuqtai nazardan ta'minlaydi, o'qituvchi pedagogik mahoratining rivojlanish istiqbollari belgilab, uning faoliyat yuritish dinamikasini kuzatish orqali tanlangan mehnat shakllari samaradorligini baholash imkoniyatini beradi.

O'qituvchi pedagogik faoliyatini tashhislashning turli aspektlarini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarining soni ko'p.

Ayni paytda o'qituvchilar uchun eng zarur hislatlarni aniqlab olish imkoniyatini beradigan, o'qituvchilik kasbining professiogrammasi (ta'lim tizimiga keltirilgan, mehnatni psixologik tomondan o'rganib, kelgusi amaliy faoliyatda foydalanishga qaratilgan, kasbni har tomonlama batafsil yoritib beruvchi yo'rtalish) psixolog olimlar (R.Z.Gaynutdinov, M.G.Davletshin, S.Jalilova, A.Jabborov) tomonidan ishlab chiqilib amalda qo'llanilmoqda. Olimlar o'qituvchi professiogrammasi,

³ Qarang: Ojegov S.I. Siovar russkogo yazika/Pod red. N.Yu.Shvedinov -M., 1980,- 167. ^b Yaxlitlik - ob'ekt, jarayonning ichki birligi. Karang Filosofskiy siovar. /Pod red. I.T.Frolova. - M.Politizdat 1986. 533 b.

muayyan fan tomonidan o'qituvchiga qo'yiladigan maxsus talablarni o'z ichiga qamrab olishini, o'qituvchi o'zi tanlagan fan yuzasidan qanday talablar qo'yilishini mukammal bilishini aytib, shu asosda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil qilishni, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida muayyan mutaxassislik bo'yicha "O'qituvchi professiogrammasi" ishlab chiqilishi zarurligini ta'kidlaydilar. Hozirgi kunda umumta'lim maktablari o'qituvchilarining pedagogik faoliyatini takomillashtirish uchun ishlab chiqilgan professiogrammaga asoslanib, o'qituvchilarni tashhislashning ushbu me'todidan foydalanib kelinadi. Biroq ushbu professiogramma o'qituvchining kun sayin o'zgarib turuvchi jamiyat talablariga muvofiq shaxsiy dunyoqarashini, ongini, mafkurasini boyitish dinamikasini to'liq aks ettira olmaydi.

Pedagogik faoliyatni tadqiq etish mantiqi, pedagogik tashhislashning turli metodikalarini birlashtirish zaruriyati N.V.Kuzminaning ishlarida keng yoritilgan. Tadqiqotning so'rov, kuzatish, baholash (reyting), o'z - o'zini baholash, juft qiyoslash, sotsiometriya va eksperiment kabi metod- larini o'rganar ekan, u aynan «o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini anglash usullaridan biri sifatida shaxsning barcha imkoniyatlarini namoyon qilishga, uning xulqiga, xarakteriga, faoliyat sur'atiga ta'sir etishini» ta'kidlaydi. O'qituvchining pedagogik bilim va malakalari tizimini tavsiflab, N.V.Kuzmina o'qituvchining bilish va o'rganish malakalari ichi- dan uning pedagogik faoliyati uchun zarur bo'lgan afzalliklarni va nuqsonlarni ongli ravishda bilib tuzatish yoki takomillashtirish maqsadida tahlil qila olish qobiliyatini ajratib ko'rsatadi.

I.P.Rachenkoning fikricha, o'qituvchining o'zi, o'z shaxsi haqidagi tasavvuri, ijobiy MEN - konsepsiyasini shakllantira olishi uning ijodiy faolligini rivojlantirishning kafolati sanaladi.

Yuqorida bayon qilingan fikrlar o'qituvchining kasbiy refleksiyasi, o'z - o'zini yuqori darajada baholashni ta'minlab, o'qituvchiga o'z pedagogik mahoratini takomillashtirish yo'lidan maqsadli faoliyat olib borish imkoniyatini beradi.

O'qituvchining pedagogik mahoratini oshirishning asosiy yo'li - bevosita ta'lim muassasasida ilmiy asosda tashkil qilingan tadqiqotchilik ishi, deb hisoblagan V.P.Simonov mohir o'qituvchi shaxsi va faoliyati samaradorligini tashhislash

uchun asosiy kasbiy ahamiyatli ko'rsat- kichlaming tizimini va taxminiy mazmunini ishlab chiqdi. U taklif qilgan metodikalar, muallifning fikricha, nafaqat o'qituvchining ta'lim faoliyati, balki u bilan o'zaro faoliyat olib boradigan o'quvchilarning o'quv faoliyati samaradorligini ham aniqlash imkoniyatini beradi. O'qituvchining ahamiyatga molik boigan kasbiy sifatlarini tashhislash natijalarini olim uch xil yo'nalishda baholaydi: optimal, yo'l qo'yiladigan va tanqidiy daraja bo'yicha. V.P.Simonov hamma vaqt ham ijobiy natija beraver- maydigan tekshiruvchilaming yuzaki yondashuvi o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini ma'lum darajada buzadi yoki noto'g'ri kategoriyalaydi, ularning pedagogik tashabbuskorligini va mustaqilligini so'ndiradi, olim har bir o'qituvchida o'z pedagogik faoliyatini «ishonchli va isbotli» natijalar bilan baholash va uning natijalari hamda samaradorligi haqida gapirish malakasini rivojlantirish zarurligini aytadi.

Kasbiy pedagogik faoliyatni tahlil qilish va o'z-o'zini tahlil qilishni o'qituvchi faoliyati va refleksiv pozitsiyasi nuqtai nazaridan tuzatish va takomillashtirish maqsadida pedagogik vazifalarni hal qilishga qaratilgan pedagogik malakalar yig'indisi sifatida qarab, A.V.Xristeva analitik malakalar tizimini analitik faoliyat tizimi bilan nisbatlaydi. U kasbiy pedagogik faoliyatni tahlil va o'z - o'zini tahlil qilishning quyidagi bosqichlarini ajratib ko'rsatadi:

1. Mazmunli - diagnostik (tayyorlov - moslashuv) bosqich;
2. Maqsadli loyihalashtirish (tahlil va o'z-o'zini tahlil qilishdan maqsadni aniqlashtirish) bosqichi;
3. Texnologik (kasbiy pedagogik faoliyat jarayonini va o'z-o'zini tahlil qilish) bosqich;
4. Tahlil va o'z-o'zini tahlil qilishning nazariy (pedagogik faoliyatning mohiyati, natijalari bilan pedagogik faoliyat jarayoni o'rtasidagi aloqalaming sabab va oqibatlarini nazariy anglash) bosqichi;
5. Faoliyatni refleksiv baholash (faoliyatni baholash va refleksiv tahlil) bosqichi;
6. Korreksiyalash (ijodiy bosqich bo'lib, o'z pedagogik faoliyatini nazariy jihatdan anglash va baholash asosida takomillashtirish va ham- kasblarining

samarali pedagogik tajribalaridan ijodiy foydalanish yo'llari va usullari belgilanadi) bosqichi.

Muallif taklif qilgan analitik faoliyat algoritmi interiorizatsiya (tashqi omillarning ichki omillarga o'tishi) jarayonida tashqi faoliyatning ichki faoliyatga o'tish mexanizmi qanday rivojlanishi, ichkisi esa, o'z navbatida, tashqi faoliyat orqali o'z-o'zini o'zgartirishini (uning davomida o'qituvchilar kasbiy refleksiyasining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan analitik darajasi o'zgaradi) tushunish imkoniyatini beradi.

N.A.Evert, A.I.Sosnovskiy, S.N.Kuliyev pedagogik mahorat tizimidan uchta asosiy: estetik (axloqiy), ijtimoiy-psixologik va texnologik kabi tarkibiy qismlarni ajratib, o'qituvchi pedagogik mahoratining diagnostik dasturini ishlab chiqishadi va quyidagi bloklarni farqlaydilar:

- yuksak ma'naviy barkamollik;
- o'qituvchining individual - psixologik xususiyatlari;
- hamkasblari bilan pedagogik hamkorlik;
- pedagogik texnikani o'zlashtirish;
- shaxsiy kasbiy xususiyatlari;
- ijobiy natijalarga oson erishish.

O'qituvchining ijtimoiy-psixologik shakllanishida o'z ustida ishlashi murakkab tizimga ega. Bunda o'qituvchi ekstensiv, taxminiy, metodologik, kommunikativ, psixologik hamkorlikda ijodkorlik vazifalarini bajaradi. Diagnostik dasturda o'qituvchi kasbiy tayyorgarlik jarayonida tadqiqotchilik, mohirlik, reproduktiv (xotirada saqlash), rasmiy - ijro- chilik kabi faoliyat bo'yicha muntazam ish olib boradi. Ushbu faoliyat dasturlari ayniqsa, yosh o'qituvchilarning pedagogik faoliyatida duch keladigan ijtimoiy munosabat, sinfdan qo'rqish, o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatda ziddiyat hosil bo'lishi kabi psixologik to'siqlarni engishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Olimlarning pedagogik mahorat tahliliga bu kabi chuqur yonda- shuvida barcha o'zaro bog'langan tizimlarni birdaniga qamrab olish amalda mumkin emas. Natijalar haddan ziyod katta hajmda, tarqoq bo'ladi, eng asosiysi, bu holda pedagogik mehnatning alohida bo'g'inlari tahliliga chuqur yondashib bo'lmaydi. Umuman pedagogik faoliyat doimiy ravishda o'z-o'zini tahlil etish, o'qituvchi refleksiyasi rivojlanishining tashabbuskori bo'la oladigan o'ziga xos «tezlashtiruvchi» rolini o'ynamog'i kerak.

3. Hozirgi davrda o'qituvchilarning kasbiy mahoratini takomillashtirish

“Ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko’tarish, milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini barpo etish, kelajak uchun barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalash maqsadida: “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun va kadrlar tayyorlash bo’yicha milliy dasturni hayotga tatbiq etish ishlari davlat siyosatining ustuvor yo’nalishi deb hisoblansin” deyiladi “Ta’lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga etkazish” to’g’risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 6 oktyabrda qabul qilgan Farmonida. Barcha sohalarda olib borilayotgan islohotlar samarasi yangicha fikrlaydigan, zamonaviy bilimlarga ega bo’lgan yuksak malakali kadrlarga bog’liq. Kadrlarni tayyorlash esa avvalo o’qituvchi-murabbiylar zimmasiga yuklatilgan. Shu sababli, chuqur bilimga ega bo’lgan, zamonaviy o’qituvchi-kadrlar taraqqiyotimizning muhim omili sifatida qaralib kelinmoqda. o’qituvchilarimiz bugungi zamon talblariga mos bilimlar sohibi, yangilangan ta’lim mazmunini egallagan bo’lishlari kerak. o’qituvchi xodimlar o’zlarining kasb-ko‘nikmalari va muallimlik mahoratlarini doimo takomillashtirib borishlari shart.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» g‘oyalarini amaliyotga tatbiq etish respublika ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyatini ta’minlash, ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o’qituvchi, tarbiyachi, ishlab chiqarish ustalarining ma’naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga bog’liqdir.

Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni bo’lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk namoyondalari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasida o’qituvchi kadrlarning ma’naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talblar qo’yilmoqda. Chunonchi, bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

I.A.Karimov quyidagilarni qayd etadi: «Tarbiyachi - ustoz bo’lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o’stirishi, ta’rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy

vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining o'zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlariga ega bo'lishi kerak»⁴.

Yuqorida qayd yetilgan fikrlardan kelib chiqib bugungi kun o'qituvchisi shaxsiga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmuni anglaniladi. Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi zarur? Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab ushbu muammo bo'yicha ko'plab pedagog va psixolog olimlar o'z fikr va mulohazalari bilan chiqdilar. o'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini milliy an'ana va urf-odatlarimizdan, qadriyatlarimizdan kelib chiqib yanada takomillashtirish, ularning pedagogik faoliyatini hozirgi zamon talablari darajasida rivojlantirish uchun metodik qo'llanmalar, tavsiyanomalar paydo bo'ldi. Hozirgi kunda ham ushbu muammo bo'yicha ilmiy izlanishlar, ilmiy tadqiqotlar davom etmoqda.

XXI asrga kelib o'qituvchining vazifasi yanada takomillashib bormoqda. Endilikda global o'zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi o'qituvchidan yuksak mahoratni, o'tkir irodani, psixologik quvvatni, chuqur bilim va mulohazali bo'lishni talab qiladi.

Hozirgi zamon o'qituvchisi o'z mutaxassisligiga oid bilimlar bilan birga, pedagogik va psixologik bilimlarni hamda turli fan yo'nalishlari bo'yicha maxsus bilimlarga ega bo'lgan, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarini egallagan, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdir. Ushbu nuqtai nazardan hozirgi kunda quyidagi burch va mas'uliyatlar o'qituvchilardan talab qilinadi:

1. o'qituvchi, eng avvalo, mas'uliyatni his etuvchi tarbiyachi, tajribali notiq, madaniyat va ma'rifat targ'ibotchisidir.

2. o'qituvchi tabiatan o'quvchilarni seva olishi, o'z mehrini, his-tuyg'ularini har lahzada o'quvchilar ichki dunyosi bilan bog'lay olishi, ularning ham mehriga, hurmatiga sazovor bo'lishi kerak,

3. O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi va

⁴ Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. - Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa kontserni Bosh tahririyati, 1993, 27-28-bet.

ularga xolisona baho berib, bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni doimiy bera olishi lozim.

4. Zamonaviy o'qituvchining ilm-fan, texnika va axborot-kommunikatsion texnologiyalari yangiliklaridan va yutuqlaridan xabardor bo'lib borishi talab etiladi.

5. O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur va puxta bilimga ega bo'lishi, barcha fanlar integratsiyasini o'zlashtirib borishi, bunda o'z ustida tinimsiz ilmiy izlanishlar olib borishi.

6. O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya faoliyatini tashkil etishi kerak.

7. O'qituvchi kasbiy pedagogik faoliyatida ta'lim va tarbiyaning eng samarali zamonaviy shakl, metod va vositalaridan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i lozim.

8. O'qituvchi ijodkor, ta'lim-tarbiyaviy faoliyat tashabbuskori va yosh avlod kelajagi uchun javobgar shaxsdir.

9. O'qituvchi kasbiy faoliyati jarayonida yuksak darajadagi pedagogik mahorat, kommunikativ layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, takt) qoidalarini chuqur o'zlashtirib borishi shart.

10. O'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettirishi kerak: turli sheva so'zlardan holi bo'lib, faqat adabiy tilda ifoda etilishi; o'qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi; hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rinli foydalana olishi lozim. Jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos so'zlar), varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarni no'rin qo'llanilishi), vulgarizm (haqorat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda konselyarizm (o'zni bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish) kabi norasmiy so'zlardan holi bo'lishi.

11. O'qituvchining kiyinish madaniyati o'ziga xos bo'lishi, ya'ni sodda, ozoda, bejirim kiyinishi, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining diqqatini tez jalb etuvchi

turli xil bezaklar (oltin, kumush taqin- choqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishi talab etiladi.

12.O'qituvchi ta'lim muassasasida sinf jamoasining asosiy tashkilotchisi va ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning eng faol ishtirokchisidir.

13.O'qituvchi pedagogik muioqot jarayonining faol ishtirokchisi ekanligini unutmashligi shart. Shuning uchun kasbiy faoliyatida pedagogik mahoratning bir qator sifatlarini uzluksiz tarkib toptirib borishi zarur.

14. O'qituvchi, eng avvalo, mulohazali, bosiq, har qanday pedagogik vaziyatni to'g'ri baholay oladigan hamda mustaqil ravishda mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishning uddasidan chiqish kerak.

O'qituvchilar unutmashliklari kerakki, o'quvchi, ota-onalar hamda hamkasblari bilan muioqot jarayonida fikrini aniq va lo'nda bayon etilishiga ahamiyat qaratishlari maqsadga muvofiqdir. Ular bilan munosabat jarayonida so'zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan boshlamasligi, aksincha, o'quvchilarning (yoki hamkasbi, ota-onalar) muvaffaqiyatlarini e'tirof etishlari, ularni yanada boyitishga ishonch bildirishi bilan muloqotni tashkil qilishi lozim. Muioqot jarayonida o'qituvchining so'zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrixohlik, samimiylilik, do'stona munosabat, yaxshi kayfiyat sezilib tursin.

O'qituvchining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o'quvchilar, hamkasblari hamda ota-onalar o'rtasida obro'-e'tibor qozonishini ta'minlaydi.

Hozirgi sharoitda jamiyatning o'qituvchilik kasbiga nisbatan qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarni amalda to'g'ri tashkil qilish vazifasi o'qituvchiga bog'liq. Zamonaviy maktab o'qituvchisi qator vazifalarni bajaradi. O'qituvchi avvalo sinfdagi tarbiyaviy jarayonning tashkilotchisidir. O'qituvchi tarbiyachi sifatida quyidagi talablarni bilishi lozim:

shaxsni ma'naviy va ma'rifiy jihatdan tarbiyalashda milliy uyg'onish mafkurasining hamda umuminsoniy boylaklarning mohiyatini bilishi, bolalarni mustaqillik g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashi, o'z Vataniga, tabiatga va oilasiga bo'lgan muhabbati;

kasbiy bilimlarni puxta bilish bilan birga, turli bilimlardan xabardor bo'lishi;

yosh pedagogik psixologiya, pedagogika va psixologiya, yoshlar fiziologiyasi, tarbiyaviy ish metodikasi, maktab gigiyenasidan o'z kasbiga oid bilimlarni mukammal bilishi; o'z

kasbi bo'yicha jahon fanida erishilayotgan so'nggi yutuqlar, tarbiya texnologiyasi, kompyuter va axborot texnologiyalari, yangiliklaridan doimiy xabardor bo'lib borishi; ta'lim-tarbiya metodikasidan ko'nikma va malakalarini oshirib borishi; o'z kasbiga ijodiy yondashishi; pedagogik texnika (mantiq, nutq ta'limining ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo'lishi; o'z bilimi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi.

Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik mahoratning asosiy qonuniyati oz mehnat sarf qilib, ulkan natijalarga erishish. Ijodkorlik uning hamisha hamrohi boladi. Pedagogik faoliyatga qiziqqan, qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat hislatlari shakllanib boradi. Pedagogik faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy xarakterga ega. o'qituvchi o'quvchi shaxsini shakllantiradi, kutilmagan vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qiladi, pedagogik muammolarni echadi, o'quv jarayonini mustaqil boshqaradi. Bularning hammasi ijodkorlikning tub mohiyati, ishning maqsadi va xarakteri bilan bog'liq.

o'quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy faoliyatda, malum maqsadga erishmoq uchun o'qituvchilar bolalarni hamkorlik jarayoniga tortishi zarur. o'qituvchi o'quvchilarni o'zi bilan hamkorlik qilishga jalb eta olishda quyidagi vazifalarni bajaradi:

- hamkorlik vujudga kelishi uchun jamoada tashkil etilishi lozim bolgan faoliyat o'quvchilar uchun qiziqarli boiishi, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga va qiziqishlariga to'g'ri kelishi lozim;
- o'quvchilarni biror ishga jalb qilar ekan, o'qituvchi ularga pedagogik va psixologik jihatdan to'g'ri vazifa qo'yishi, yo'l yo'riq ko'rsatishi shart;
- o'quvchilar topshiriqni amalga oshirishga kirishganlarida o'qituvchi bir vaqtning o'zida ham ishtirokchi, ham maslahatchi vazifasini bajaradi.

Ijodiy faoliyat olib boruvchi o'qituvchi faqatgina bolalarni muvaffaqiyatli o'qitish va tarbiyalash, iig'or o'qituvchilar ish tajribalarini o'rganish bilangina cheklanib qolmasdan, tadqiqotchilik ko'nikma va malakalariga ham ega boiishi zarur. Hozirgi zamon o'qituvchisi fan va texnika taraqqiyotining eng so'nggi yutuqlaridan foydalanishi, o'z kasbiy faoliyatida yangi pedagogik texnologiyalarni unumli qollay olishi taqozo etiladi.

Xulosa

Pedagogik va psixologik adabiyotlar tahlili, qiyinchilik - insonning subyektiv psixologik holati ekanligini, u hamma vaqt ham tashqi kuzatuvchi tahlil uchun qulay emas degan xulosa qilishga imkon berishini, bu esa hech kim o'qituvchining kasbiy qiyinchiliklarini uning o'zidan ko'ra yaxshiroq aniqlay olmasligini va ularni bartaraf qilish yo'llarini ham o'zidan boshqa kishi topa olmasligini ta'kidlaydi. Demak, o'qituvchining pedagogik faoliyatida kasbiy qiyinchiliklarini tadqiq qilishning yanada qulay yo'li bu, o'z-o'zini tashxislash hisoblanadi.

Shu bilan birga psixologik mashg'ulotlardan biri bo'lgan "Autogen trenirovka" ham muhim ahamiyatga ega. "Auto - o'z-o'ziga ta'sir" ma'nosini bildirib, o'qituvchi o'z-o'ziga ta'sir o'tkazgan holda kasbiy faoliyatida duch keladigan qiyinchiliklarni engib borishi mumkin.

Ya.S.Turbovskiyning fikricha, kasbiy takomillashuvning salbiy «energetik asosi» bo'lgan qoniqmaslik hissi, rivojlanishda to'xtab qolganlikni chin ko'ngildan his etish sanaladi. «Buyruq, chaqiriq va nazorat emas, balki aynan o'qituvchining o'z faoliyatidan qoniqmaslik hissi, yuzaga kelgan pedagogik ziddiyatni boshqacha qilishga, buning uchun yangi vositalarni izlab topishga va uni o'zlashtirishga ongli ravishda intilishini ta'minlaydi, qiyinchilik va ziddiyatlarni bartaraf etishdan, shaxsan o'zi hal qilgan tadqiqotchilik vazifasidan ijodiy quvonish, qoniqish hissi - o'qituvchi kasbiy komponentining asosiy manbasiga aylanadi, aniqlanishi mumkin».

Ya.S.Turbovskiy tomonidan ishlab chiqilgan, pedagogik tajribani diagnostik o'rganish nazariyasi va metodikasi har bir pedagogik jamoada va jamoaning har bir a'zosi uchun pedagogik kasbiy faoliyat xususiyatlarini o'rganishda yagona maqsad uchun harakatlanishga imkoniyat beradi, bu o'z navbatida o'qituvchining pedagogik mahoratini oshirish mexanizmini yaratish uchun zamin hozirlaydi.

Pedagogik tashxislash konsepsiyasi pedagogika fani va ta'lim muassasalari amaliyotining o'zaro hamkorlik jarayonini boshqarish imkoniyatini ta'minlaydigan uchta metodologik asosni o'z ichiga oladi:

- ma'lum bir pedagogik mahorat pozitsiyasini egallash;

- ma'lum bir maqsadga yo'nalganlik;
- pedagogik mahoratni egallashga bo'lgan ehtiyoj.

Turli boshqaruv tizimlari nuqtai nazaridan aynan bir xil natijalar u yoki bu muammoning dolzarbligi bilan belgilanadigan turlicha ahamiyat kasb etishi mumkin. Ish tajribasidan foydalanish hajmi va miqyosi ham har xil bo'ladi. Kons epsiya mualliflari integratsion fan yutuqlaridan foydalanish samaradorligi, olimlar erishgan natijalar, amaliyotchilar unga ehtiyoj sezgan joyga borib etishi, ilmiy bilimlarning ma'lum bir maqsadga yo'nalganligiga bog'liqligini ta'kidlaydilar.

Fanning u yoki bu tarzda tavsiyalari pedagogikada ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan g'oyalar bilan ta'minlashdan avval amaliyot asosida aniqlangan ehtiyoj bo'lishi kerak. O'qituvchi mehnatini o'rganish jarayonida qator shart sharoitlarga rioya qilish ko'zda tutiladi.

A.K.Markovning fikricha, nafaqat o'qituvchilik kasbida uzoq o'tmish tajribalaridan foydalanish darkor, balki o'qituvchi kasbiy rivojlanishining eng yaqin va olis istiqbollarini ham o'tmish tajribalaridan foydalanish asosida belgilash zarur.

Shu munosabat bilan pedagogik tashxis pedagogik faoliyatda erishi- ladigan yutuqlarni belgilovchi (prognostik) xarakter kasb etganida sam- rali bo'lishini ta'kidlamoqchimiz. Olimlar tomonidan olib borilgan tajriba ishlari jarayonida shu narsa aniqlandiki, pedagogik mahoratni tadqiq qilishning belgilovchi (prognostik) xarakteri bevosita o'qituvchining kasbiy refleksiyasiga tayanadi.

Bu o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonida paydo bo'ladigan muammosi aynan nimadan iboratligini va uning sababi aynan nima ekanligini aniqlash, sabab va oqibatlarini pedagogik qiyinchilik oqibati bilan qorishtirmaslikka imkoniyat beradi. Bunda pedagogik tashxislashning o'qituvchi kasbiy faoliyatini tezkor korreksiyalash imkoniyatini beradigan o'ziga xos indikatorlik (hisoblash) vazifasi namoyon bo'ladi.

O'qituvchining o'z potensial imkoniyatlarini baholash diagnostika davomida har qanday holatda ham e'tiborga olinishi lozim, - deb ta'kidlaydi A.K.Markova, - unga ishonch bildirish kerak, uning kasbiy faoliyatiga bahoni oshirib yoki pasaytirib qo'yish o'qituvchi kasbiy rivojlanishini to'xtatib qo'yishi mumkin. Ushbu

o'qituvchining individual rivojlanish mantiqini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. O'qituvchining yutuqlarini boshqa o'qituvchilarning yutuqlari bilan emas, balki o'zining oldingi yutuqlari bilan ham taqqoslash kerak.

Shaxsiy pedagogik faoliyatni o'z-o'zida tahlil qilish jarayonida o'qituvchi o'zining ta'lim-tarbiyaviy faoliyati natijalari va xususiyatlarining holatini o'rganadi, pedagogik ziddiyatlar o'rtasidagi sabab va oqibatli bog'lanishlarni aniqlaydi, o'qituvchilarga ta'lim va tarbiya berishni yanada takomillashtirish yo'llarini belgilaydi, - deb ta'kidlaydi L.E.Pleskach. Olimning fikriga ko'ra, "Refleksiya - o'z-o'zini tahlil qilish bo'lib, o'z-o'zicha belgilangan maqsadga erishish emas, balki bilim olish, tajriba orttirish usuli, ijodga, kasbiy jihatdan takomillashishga nisbatan rag'batlantirishdir".

Ilmiy adabiyotlar tahlili, shuningdek o'qituvchi faoliyatida pedagogik tajriba o'qituvchilar pedagogik mahoratini oshirishning diagnostik metodikalaridan foydalanish va olingan natijalar tahlili pedagogik tash-xislashni o'qituvchining kasbiy refleksiyasi rivojlanishini ta'minlaydigan usullardan biri sifatida baholashga imkoniyat beradi.

Zero, o'qituvchi ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganishda 'tajriba o'rganishdan maqsad va uning vazifalarini rejalashtirish, dolzarb mavzuni aniqlash, maktab amaliyotida muvaffaqiyatli o'qituvchilarning yutuqlarini o'rganish, materiallarni to'plash, tahlil qilish, xulosa chiqarish" kabi vositalardan foydalanadilar.

Shuningdek, ta'kidlamoqchimizki, pedagogik tashxislash qayd qiluvchi emas, balki maqsad hosil qilishni belgilovchi (prognostik) xarakterga ega bo'lganligida samarali bo'ladi, bu o'qituvchining kasbiy refleksiyasi rivojlanishi asosida amalga oshiriladi. Ayni paytda aynan ta'lim-tarbiya jarayonida maqsad hosil qiluvchi tashxislash uning rivojlanish qobiliyatini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytilganda, o'qituvchi tomonidan o'z kasbiy faoliyati natijalarini anglab etishi uning pedagogik faoliyatni amalga oshirishini yanada takomillashgan usullarini izlash va ularni o'zlashtirish zaruriyatini ta'minlaydi. Faoliyatni o'zgartirish esa, ma'lumki, faoliyat subyekti o'zgarishiga olib keladi. O'qituvchining analitik (tahlil qilish) qobiliyatlari rivojlanishi jarayonida uning kasbiy refleksiyasi ham rivojlanadi, bu o'z navbatida, o'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirish jarayonini ma'lum bir yo'nalishga solib, uning shaxsiy ijodiy faolligi oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. //Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -Toshkent; "Sharq", 1997, 20-29 betlar.
2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonuni. //Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -Toshkent; "Sharq", 1997, 31-61 betlar.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. - T.: "O'zbekiston", 2009. - 176 b.
4. Barkamol avlod orzusi //Tuzuvchilar: Sh.Qurbonov, H.Saidov, R.Ahliddinov. - ToTdirilgan 2-nashri. - T.: "O'zbekiston milliy ens iklopediyasi", 2000. - 248 b.
5. Batarshchev A.V. Psixodiagnostika sposobnosti k obshcheniyu ili kak opredelit organizatorskiye i kommunikativniye kachestva lichnosti.- M.: Gumanit. Izd. Tsentr VLADOS, 1999.- 176 s.
6. Bizyayeva A.A. Refleksivniye protsessi v soznanii i deyatelnosti uchitelya: Diss. kand. psixol. nauk.- S.- Pb.- 1993,- 190 s.
7. Vulfov B.Z., Xarkin V.N. Pedagogika refleksii: Vzgl'yad na professionalnuyu podgotovku uchitelya.- M.: Magistr, 1995,- 112 s.
8. Kuzmina N.V. Sposobnosti, odarennost, talant uchitelya. L.: Znaniye, 1985,- 32 s.
9. Suxomlinskiy V.D. Bolalarga jonim fido. - T.: "o'qituvchi", 1984.-254 b.
10. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi. (M.X.Toxtaxodjayeva va boshqalar) - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007. -380 b.
11. Pirmuxamedova M. Pedagogik mahorat asoslari.- T.: 2001.
12. Pleskach L.E. Obucheniye uchiteley samoanalizu pedagogicheskoy deyatelnosti kak sostavnaya chast sistemi vnutrishkolnogo upravleniya: Avtoref.kand.ped.nauk.-M., 1983,- 19 s.
13. Rachenko I.P. Diagnostika razvitiya pedagogicheskogo tvorchestva uchitelya. - Pyatigorsk, 1992.- 196 s.
14. Turbovskoy Ya.S., Provotorov V.P. Diagnosticheskiye osnovi tselepolaganiya v obrazovanii. - M.: ITO i PRAO, 1995.- 116 s.
15. Shedrovitskiy G.P. Kommunikatsiya, deyatelnost, refleksiya //Issledovaniye rechemislitelnoy deyatelnosti. - Alma-ata, 1974. - S. 12-28.